



QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

QASHQADARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2021- YIL YANVAR-APREL
(DASTLABKI MA'LUMOT)


Sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: (75)-221-32-36

Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar-aprel oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5746,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 128,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (63,8 %) ni tashkil etdi.



B-Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat, D-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oshishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 73,5 % ga ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 24,2 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 5,5 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 9,9 % ga pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 584,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,2 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Tabiiy qum, ming t.	30,9	48,6	17,7
Neft, ming t.	8,9	417,7	408,8
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	858,4	75,7	-782,7
Gaz kondensati, ming t.	93,3	50,5	-42,8
Chaqiq tosh, ming t.	42,0	41,5	-0,5
Shagʻal, ming t.	26,1	12,6	-13,5

Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3667,6 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 63,8 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 21,0 % (22,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 1,7 % (2,0 %) va quyi texnologiyalisi – 41,0 % (45,3 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoatining ulushi – 0,5 % (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 5,9 marta), to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 25,5 % (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 148,6 %), kiyim ishlab chiqarishning ulushi – 2,0 % (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,3 %), oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,6 % (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,9 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 21,0 % (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,5 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 60,2 ming tonna paxta chigiti (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 133,8 % oshgan), 40,2 ming tonna paxta tolasi (136,4 %), 4,5 ming tonna Mel (181,6 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 13,5 ming tonna Asfaltli aralashmalar ishlab chiqarilib (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 113,9 % ga oshgan), 65,0 ming tonna Kaliy xlorid (99,4 %), 0,4 ming tonna Oltingugurt (110,5 %), 46.7 ming tonna Og'irligi 0,94 dan kam bo'lmagan polietilen (107,6 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Og'irligi 0,94 dan kam bo'lmagan polietilen, ming t.	43,4	46,7	3,3
Asfaltli aralashmalar, ming t.	11,9	13,5	1,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	50,9	49,5	-1,4
Paxta tolasi, ming t.	19,5	40,2	20,7
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	2,1	1,6	-0,5
Kaliy xlorid, ming t.	65,4	65,0	-0,4
Plastmassa quvurlar, ming t.	1,8	1,1	0,7
Ip kalava, ming t.	14,1	10,8	-3,3
Oltin gugurt, ming t.	0,3	0,4	0,1

Metallurgiya sanoati
(2021- yil yanvar-aprel oylarida)




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish
(2021- yil yanvar-aprel oylarida)



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(2021- yil yanvar-aprel oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 76,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 721,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-aprel oylarida)




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 129,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 22,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 29,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-aprel oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 96,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,5 % ni, fizik hajm indeksi 48,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1466,6 mlrd. so'mni tashkil etd.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-aprel oylarida)




2020- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 93,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % fizik hajm indeksi 87,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 117,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

(2021- yil yanvar-aprel oylarida)

2020- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 22,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 20,6 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,0 % ni, fizik hajm indeksi 119,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1204,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

(2021- yil yanvar-aprel oylarida)


2020- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 63,6 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 84,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash


2021- yilning yanvar-aprel oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1451,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (25,3 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 73,5 % ga oshganligi kuzatildi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3015,5	4636,9	1621,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1071,8	1112,7	40,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 42,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	0,2	3,9	3,7
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	12,1	16,3	4,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 134,8 % ga shuningdek, Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 15,7 martaga o'sishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1072,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 111,0 % ga, uning jami sanoatdagi ulushi 18,7 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,9 % (2020- yil yanvar-aprel oylarida 3,8 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 33,0 % ni, shuningdek, Shahrisabz tumani 8,4 % ni, Koson tumani 8,2 % hamda Yakkabog' tumanida 8,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (111,0 %) darajasidan ko'p Qamashi tumani (155,9 %), Qarshi tumani (120,8 %) va Yakkabog' tumanida (115,6 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-aprel oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1072,8	100,0	111,1		353,6	33,0	112,1
Qashqadaryo viloyati.				Qarshi sh.			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	73,9	6,9	109,0		23,6	2,2	112,7
Shahrisabz sh.				G'uzor			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	17,7	1,7	107,7		49,9	4,7	155,9
Dehqonobod				Qamashi			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	51,5	4,8	120,8		87,8	8,2	100,5
Qarshi				Koson			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	46,5	4,3	106,1		30,2	2,8	102,9
Kitob				Mirishkor			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	23,4	2,2	109,8		32,6	3,0	105,6
Muborak				Nishon			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	27,3	2,5	107,7		77,8	7,3	103,3
Kasbi				Chiroqchi			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	90,6	8,4	109,0		86,3	8,0	115,6
Shahrisabz				Yakkabog'			

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 35,2 % shuningdek, Shahrisabz tumani 8,8 % ni, Chiroqchi tumani 7,7 % hamda Koson tumani 7,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Qamashi (153,7 %), Qarshi (121,1 %), Qarshi sh. (119,6 %) hamda G'uzor (111,1 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-aprel oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	390,0	100,0	112,5		137,3	35,2	119,6
Qashqadaryo viloyati.				Qarshi sh.			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	21,0	5,4	104,8		9,1	2,3	111,1
Shahrisabz sh.				G'uzor			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	6,6	1,7	106,8		17,3	4,4	153,7
Dehqonobod				Qamashi			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	20,1	5,2	121,1		27,6	7,1	109,3
Qarshi				Koson			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	15,4	4,0	103,9		12,0	3,1	103,6
Kitob				Mirishkor			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	8,6	2,2	108,2		13,3	3,4	105,2
Muborak				Nishon			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	9,0	2,3	104,2		29,9	7,7	101,1
Kasbi				Chiroqchi			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	34,3	8,8	108,1		28,5	7,3	103,5
Shahrisabz				Yakkabog'			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 31,7 % ni, shuningdek, Koson tumani 8,8 % ni, Yakkabog' tumani esa 8,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Qamashi tumani (157,1 %), Qarshi (120,6 %), G'uzor (113,7 %) hamda Yakkabog' (112,4 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-aprel oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	682,8	100,0	108,8		216,3	31,7	107,9
Qashqadaryo viloyati.				Qarshi sh.			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	52,9	7,7	108,6		14,5	2,1	113,7
Shahrisabz sh.				G'uzor			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	11,1	1,6	108,3		32,6	4,8	157,1
Dehqonobod				Qamashi			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	31,5	4,6	120,6		60,2	8,8	97,0
Qarshi				Koson			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	31,1	4,5	107,2		18,2	2,7	102,5
Kitob				Mirishkor			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	14,8	2,2	110,7		19,4	2,8	105,8
Muborak				Nishon			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	18,3	2,7	109,5		47,9	7,0	104,7
Kasbi				Chiroqchi			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	56,3	8,2	109,6		57,9	8,5	112,4
Shahrisabz				Yakkabog'			

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-aprel oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1105,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 19,2 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

2021- yilning yanvar-aprel oylarida

	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da
	5746,0	100,0	128,9		871,0	15,2	120,1
Qashqadaryo viloyati.				Qarshi sh.			
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da
	85,1	1,5	102,5		1130,8	19,7	121,6
Shahrisabz sh.				Gʻuzor			
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da
	173,9	3,0	101,1		119,4	2,1	105,4
Dehqonobod				Qamashi			
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da
	328,8	5,7	126,3		241,3	4,2	83,0
Qarshi				Koson			
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da
	69,2	1,2	97,2		153,8	2,7	147,9
Kitob				Mirishkor			
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da
	171,9	3,0	69,4		1547,0	26,9	181,2
Muborak				Nishon			
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da
	474,7	8,3	2,4 m		139,1	2,4	133,5
Kasbi				Chiroqchi			
	Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mlrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da
	96,8	1,7	103,6		143,2	2,5	131,3
Shahrisabz				Yakkabogʻ			

Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kasbi (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2,4 martaga), Nishon (181,2 %), Mirishkor (147,9 %), Chiroqchi (133,5 %), Yakkabog' (131,3 %) va Qarshi (126,3 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Qashqadaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 26,9 % i) hamda G'uzor (19,7 %), Qarshi sh. (15,2 %), Kasbi (8,3 %) va Qarshi (5,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Kitob (1,2 %) hamda Shahrisabz shahriga (1,5 %) to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (9 923,1 ming so'm), G'uzor (5 433,9 ming so'm), Qarshi shahrida (3 122,8 ming so'm) hamda Kasbi (2 372,2 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 719,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-aprel oylarida, ming so'm

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	1 719,3	321,0		3 122,8	1 198,8
Qashqadaryo viloyati			Qarshi sh.		



	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
604,6	562,8	5 433,9	122,5	G'uzor	
Shahrisabz sh.					
	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
1 158,3	136,6	433,9	185,3	Qamashi	
Dehqonobod					
	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
1 298,2	197,1	828,9	300,9	Koson	
Qarshi					
	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
259,4	208,0	1 262,7	336,8	Mirishkor	
Kitob					
	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
1 941,9	233,0	9 923,1	310,4	Nishon	
Muborak					
	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
2 372,2	103,9	330,3	199,7	Chiroqchi	
Kasbi					
	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
432,6	322,8	537,3	299,7	Yakkabog'	
Shahrisabz					

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 321,0 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi sh. – 1 198,8 ming so'mni, Shahrisabz sh. – 562,8 ming so'mni, Mirishkor tumanida – 336,8 ming so'mni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 2021- yilning yanvar-aprel oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 105,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,2 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 92,1 %), Mirishkor (91,2 %), Shahrisabz tumanida (76,7 %) va Shahrisabz shahrida (76,4 %) kuzatildi.



Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Nishon (3,1 %), G'uzor (3,6 %), Kasbi (4,4 %) va Dehqonobod (11,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2021- yil 1- may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4437 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 844 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 19,0 % i) Qarshi shahriga, 498 tasi (11,2 %) Kitob tumaniga, 395 tasi (8,9 %) Yakkabog' tumaniga, 364 tasi (8,2 %) Chiroqchi tumaniga, 355 tasi (8,0 %) Shahrisabz shahriga, 316 tasi (7,1 %) Qarshi tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 643 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 123 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 19,1 %) Qarshi shahrida, 71 tasi (11,0 %) Kasbi tumanida, 50 tasi (7,8 %) G'uzor tumanida, 45 tasi (7,0 %) Qarshi va 45 tasi (7,0 %) Chiroqchi tumanlarida tashkil etildi.